BUXORO VILOYATIDA KIMYO SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI VA INVESTITSION IMKONIYATLARI

Naimov Rustam Muzaffarovich
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Buxoro viloyati hududiy filiali rahbari
elektron pochta: naimov1386@gmail.com
Mattiev Nasimjon Baxtiyorovich
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
Buxoro viloyati hududiy filiali bosh mutaxassisi
elektron pochta: mattievnasim@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Buxoro viloyati kimyo sanoatining rivojlanish tendensiyalari ishlab chiqarish, investitsiya va tashqi savdo ko‘rsatkichlari asosida o‘rganilgan. Hududda kimyo sanoatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, investitsiya imkoniyatlari, eksport salohiyati va ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot yakunida investitsiya, ishlab chiqarish, eksport, import o‘rnini bosish va monitoring yo‘nalishlarini qamrab oluvchi besh blokli iqtisodiy mexanizm taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: kimyo sanoati, iqtisodiy mexanizm, investitsiya, ishlab chiqarish, eksport salohiyati, import o‘rnini bosish, kooperatsiya, monitoring.

Аннотация

В статье изучены тенденции развития химической промышленности Бухарской области на основе показателей производства, инвестиций и внешней торговли. Рассмотрены основные направления развития отрасли, инвестиционные возможности, экспортный потенциал и перспективы расширения производства. По итогам исследования предложен пятиблочный экономический механизм, охватывающий инвестиции, производство, экспорт, импортозамещение и мониторинг.

Ключевые слова: химическая промышленность, экономический механизм, инвестиции, производство, экспортный потенциал, импортозамещение, кооперация, мониторинг.

Abstract

The article examines the development trends of the chemical industry in Bukhara region based on production, investment and foreign trade indicators. It discusses the main directions of industry development, investment opportunities, export potential and prospects for expanding production. Based on the research findings, a five-block economic mechanism covering investment, production, exports, import substitution and monitoring is proposed.

Keywords: chemical industry, economic mechanism, investment, production, export potential, import substitution, cooperation, monitoring.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, investitsion faollikni oshirish hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish muhim iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kimyo sanoati mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri sifatida sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiyalash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda ham kimyo sanoatini modernizatsiya qilish, tarmoqqa mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish hamda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada hududlarning tabiiy-resurs salohiyati, mavjud sanoat infratuzilmasi va iqtisodiy imkoniyatlaridan

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xususan, Buxoro viloyatida kimyo sanoatini rivojlantirish hududning sanoat salohiyatini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish va eksport geografiyasini kengaytirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, tarmoqda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarning maqsadli yo‘naltirilishini ta’minlash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Kimyo sanoati iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u xomashyoni qayta ishlash orqali turli sohalar uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va qo‘shilgan qiymatni oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda ham ushbu tarmoqni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, 2017 yil 23 avgustda qabul qilingan Prezident qarori bilan 2017–2021 yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturi tasdiqlangan [1]. Shu bilan birga, 2018 yil 25 oktyabrdagi PQ-4265-son qarorda kimyo sanoatida mavjud bo‘lgan ayrim muammolar, xususan, investitsiyalarning yetarli emasligi va korxonalarning o‘z mablag‘lari cheklanganligi sababli zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda qiyinchiliklar mavjudligi qayd etilgan. Bu holat ishlab chiqarishda asosan mineral o‘g‘itlar ulushining yuqori bo‘lishiga olib kelgan. Shu sababli tarmoqni diversifikatsiya qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar turini ko‘paytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [2].

2022 yil 7 iyulda davlat rahbari ishtirokida o‘tkazilgan taqdimotda ham kimyo sanoatiga xususiy investitsiyalarni jalb qilish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, 5 ta kimyo klasteri doirasida kamida 1 mlrd dollarlik investitsiya loyihalarini shakllantirish vazifasi belgilangan. Shuningdek, ilgari zarar bilan ishlagan tizim 2021 yilni 1,6 trln so‘m sof foyda bilan yakunlagani ta’kidlangan [3].

Kimyo sanoatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga qaramay, tarmoqda hali yechimini kutayotgan masalalar mavjud. Jumladan, 2026 yil 2 iyundagi videoselektor yig‘ilishida so‘nggi yillarda kimyo sanoatiga 8,3 mlrd dollar investitsiya kiritilgani va 87 ta yirik ishlab chiqarish quvvati ishga tushirilgani qayd etilgan. Biroq respublika sanoatida o‘rtacha o‘sish sur’ati 6,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, kimyo sanoatidagi o‘sish 3 foizga ham yetmagan [4].

Bundan tashqari, kimyo mahsulotlari importining yillik hajmi 4,5 mlrd dollarga yetgani, mahalliy ishlab chiqarish ichki talabning 60 foizini ham qoplamayotgani ta’kidlangan. Tarmoqda bir ishchi hissasiga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymat ham boshqa mamlakatlarga nisbatan 2–3 baravar pastligi qayd etilgan. Mazkur holatlarni bartaraf etish maqsadida 17 mlrd dollarlik 350 dan ortiq investitsiya loyihasini o‘z ichiga olgan dasturni ishlab chiqish vazifasi qo‘yilgan [5].

Ko‘rsatkich	**2021**	**2023**	**2025**	**2026 yil I yarim yillik**
YaHM, mlrd so‘m	44 628,2	63 693,4	86 608,1	44 766,0
Sanoat mahsuloti, mlrd so‘m	20 772,1	31 860,4	53 490,1	26 335,0
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish, mln so‘m	323 636,6	404 605,9	688 743,5	310 441,2
Kimyo sanoatining viloyat sanoatidagi ulushi, %	1,56	1,269	1,29	1,179

1-jadval. Viloyat iqtisodiyoti va kimyo sanoatining ayrim ko‘rsatkichlari. Manba: [6].

Yuqoridagi jadvalga ko‘ra, 2021–2025 yillarda viloyat YaHM 44 628,2 mlrd so‘mdan 86 608,1 mlrd so‘mgacha, ya’ni qariyb 1,9 baravar, sanoat mahsuloti esa 20 772,1 mlrd so‘mdan 53 490,1 mlrd so‘mgacha, ya’ni qariyb 2,6 baravar o‘sgan; sanoatning YaHMdagi ulushi 16,55 foizdan 21,23 foizga ko‘tarilgan [6]. Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish esa shu davr mobaynida 323 636,6 mln so‘mdan 688 743,5 mln so‘mgacha (qariyb 2,1 baravar) o‘sgan, ya’ni tarmoq viloyat sanoatidan sekinroq rivojlangan. Shu sababli kimyo sanoatining viloyat sanoatidagi ulushi 2021 yildagi 1,56 foizdan 2025

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

yilda 1,29 foizgacha, 2026 yil birinchi yarim yilligida esa 1,179 foizgacha qisqargan. Boshlang‘ich ma’lumotlarga ko‘ra, bu ulush 2024 yilda 1,694 foizgacha ko‘tarilgan edi [6]; demak, o‘sha yilgi yuksalish barqaror tendensiyaga aylanmagan.

2024 yilda kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 715,4 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025 yilda 688,7 mlrd so‘mga kamaygan (2-jadval). Ishlab chiqarish tarkibida rezina va plastmassa buyumlari asosiy o‘rinni egallaydi. Ularning ulushi 2021 yilda 64,6 foizdan 2025 yilda 58,3 foizga, 2026 yilning birinchi yarmida esa 53,7 foizga tushgan. Shu bilan birga, farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ham 2025 yildagi 40,8 mlrd so‘mdan 2026 yilning birinchi yarmida 7,8 mlrd so‘mga kamaygan [6].

Ko‘rsatkich	**2021**	**2024**	**2025**	**2026 yil I yarim yillik**
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish, mln so‘m	323 636,6	715 407,0	688 743,5	310 441,2
Ishlab chiqarish o‘sish sur’ati, %	101,8	136,9	86,8	68,4
Jami kimyo korxonalari, ta	147	179	182	152
Faoliyat yuritayotgan korxonalar, ta	129	93	101	107
Faoliyat ko‘rsatmayotgan/tugatilgan korxonalar, ta	18	85	80	44
Rezina va plastmassa buyumlari, mln so‘m	208 925,8	407 353,2	401 270,4	166 657,2
Farmasevtika mahsulotlari, mln so‘m	13 888,9	8 400,5	40 797,1	7 812,6

2-jadval. Kimyo sanoati ishlab chiqarishi va korxonalar tarkibi. Manba: [6].

Korxonalar faoliyati tahlili ham ayrim muammolarni ko‘rsatadi. Kimyo sanoati korxonalari soni 2021 yilda 147 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2025 yilda 182 taga yetgan. Biroq faol korxonalar soni 129 tadan 101 taga kamaygan. Faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalar esa 18 tadan 80 taga ko‘paygan. Bu esa korxonalar soni ortgani bilan ularning barchasi ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirmayotganini ko‘rsatadi. 2026 yilning birinchi yarmida faol korxonalar soni 107 taga yetgan, faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalar soni esa 44 taga kamaygan.

Kimyo mahsulotlari eksporti 2021–2025 yillarda sezilarli darajada o‘sib, 4,1 mln dollardan 116,6 mln dollarga yetgan. Natijada uning viloyat jami eksportidagi ulushi ham 1,3 foizdan 28,2 foizga ko‘tarilgan (3-jadval) [6]. Biroq shu davrda import hajmi ham bir necha barobar oshib, 489,6 mln dollarni tashkil etgan. Import tarkibida asosan mineral o‘g‘itlar, turli kimyoviy mahsulotlar, polimerlar va plastmassalar mavjud bo‘lib, ular asosan Xitoy, Rossiya, Turkiya, Turkmaniston va Erondan olib kelingan [6].

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

Ko‘rsatkich	2021	2023	2025	2026 yil I yarim yillik
Kimyoviy mahsulotlar eksporti, mln AQSh dollari	4,1	10,6	116,6	65,2
Eksportning viloyat eksportidagi ulushi, %	1,3	3,5	28,2	29,3
Kimyoviy mahsulotlar importi, mln AQSh dollari	70,7	121,1	489,6	197,8
Importning viloyat importidagi ulushi, %	8,1	13,3	38,5	33,3
Eksport qilinayotgan mamlakatlar soni, ta	79	76	51	38
Import qilinayotgan mamlakatlar soni, ta	65	55	50	67

3-jadval. Kimyoviy mahsulotlar tashqi savdosi. Manba: [6].

Qizig‘i shundaki, kimyo loyihalarining investitsiyalardagi ulushi (2025 yilda 9,55 foiz) tarmoqning sanoat ishlab chiqarishidagi ulushidan (1,29 foiz) bir necha baravar yuqori. Bu ko‘rsatkichlar turli maxrajga ega bo‘lgani uchun aniq nisbat hisoblanmaydi, lekin u investitsiya ishlab chiqarishdan ilgarilab ketayotganidan, ya’ni qurilayotgan quvvatlar hali mahsulotga aylanmaganidan dalolat beradi. Shuning uchun asosiy vazifa — quvvatlarni o‘z vaqtida ishga tushirish va ulardan samarali foydalanishni ta’minlash.

Investitsiya va loyiha ko‘rsatkichlari	2021	2025	2026 yil I yarim yillik
Kimyo sanoati investitsiyasi (jadvalda berilgan qiymat)	2,3	159,8	158
Hudud investitsiyalaridagi ulushi, %	0,84	9,55	11,91
Identifikatsiya qilingan kimyo/neft-kimyo loyihalari, ta	3	3	7
Amalga oshirilayotgani tasdiqlangan loyihalar, ta	3	3	6
Yangi quvvat, ming tonna/yil	400	1 100	650


5-jadval. Kimyo sanoati investitsiyalari va loyihalari bo‘yicha ayrim ko‘rsatkichlar. Manba: [6].

Loyihalar soni 2026 yil birinchi yarim yilligida 7 taga yetgan, shundan 6 tasi amalga oshirilayotgani tasdiqlangan; yirik loyihalar doirasida yangi quvvat 650 ming tonna/yil deb qayd etilgan. Loyiha mahsulotlari qatorida mineral o‘g‘itlar, metil-tret-butil efir, benzol, toluol, ksilol, pentan, geksan, bitum, kalsiy xlorid va neftni qayta ishlash mahsulotlari, investorlar geografiyasida Shveysariya, Birlashgan Arab Amirliklari, Eron, Xitoy va Rossiya qayd etilgan.

XULOSA VA TAKLIF

Tahlil natijalari Buxoro viloyati kimyo sanoatida investitsiyalardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va eksportni kengaytirish bo‘yicha imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Shuningdek, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish va statistik ma’lumotlarni aniq yuritishga ham e’tibor qaratish lozim. Shundan kelib chiqib, viloyat kimyo sanoatini rivojlantirish uchun «investitsiya — ishlab chiqarish — eksport — import o‘rnini bosish» yo‘nalishlarini birlashtiruvchi besh bosqichli iqtisodiy mexanizm taklif etiladi (1-rasm).

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.



1-rasm. Kimyo sanoatini rivojlantirishning besh blokli iqtisodiy mexanizmi (muallif taklifi).

Taklif etilayotgan besh blokli mexanizm Buxoro viloyati kimyo sanoatidagi asosiy uzilishni bartaraf etishga qaratilgan: investitsiya va eksport o‘sishi hali barqaror ishlab chiqarish natijasiga aylanmayapti. Avvalo ma’lumotlarni yagona monitoring jadvalida tizimlashtirish zarur, chunki ularning mos emasligi boshqa choralarni baholashga imkon bermaydi. Shundan keyin 489,6 mln dollarlik import tarkibini TN VED kodlari bo‘yicha tahlil qilib, eksportning importni qoplash darajasini (23,8%) oshirish, kichik va o‘rta biznesni ta’minot zanjiriga jalb etish, loyihalarni yagona formatda yuritish hamda eksport bozorlarini (79 tadan 38 taga kamaygan) kengaytirish lozim. Bu choralar bir-birini to‘ldiradi: ma’lumot to‘g‘ri bo‘lsa, qaror to‘g‘ri bo‘ladi, qaror to‘g‘ri bo‘lsa, sarmoya natijaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-avgustdagi PQ-3236-sonli “2017–2021-yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-oktabrdagi PQ-3983-sonli “O‘zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. Kimyo sanoatidagi asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha axborot berildi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – 2022-yil 7-iyul. – https://president.uz/oz/lists/view/5323
4. Kimyo sanoatini jadal rivojlantirish vazifalari belgilandi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – 2026-yil 2-iyun. – https://www.president.uz/oz/lists/view/9273

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

5. Mirziyoyev O‘zbekiston kimyo sanoatini rivojlantirishni jadallashtirish zarurligini ta’kidladi // UzDaily.uz. – 2026-yil 2-iyun. – https://www.uzdaily.uz/uz/mirziyoyev-ozbekiston-kimyo-sanoatini-rivojlantirishni-jadallashtirish-zarurligini-ta%CA%BCkidladi/ .

6. Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Buxoro viloyati hududiy filiali. Buxoro viloyati kimyo sanoatining holati, eksport salohiyati va investitsion rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahliliy materiallar. – Buxoro, 2026.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.